



RECOMMENDATIONS ON INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF CITY PUBLIC TRANSPORT

Kuziev Abdimurot Urokovich

Termiz State University, Doctor of Technical Sciences, Associate
Professor

Bobomurotov Bekzod Tursunpolat o'g'li

Termez State University, Master's degree student

Suyunov Oltibek Dostmurodovich

Termiz State University of Engineering and Agrotechnology, teacher
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14028224>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Public transport, passenger
transport, passenger traffic,
quality indicators.

ABSTRACT

Radical development of city public transport infrastructure and improvement of service quality in providing reliable transport service to passengers is one of the urgent problems of today. The article describes the level of organization of the transportation process, quality indicators, rational distribution of traffic in the directions of the city passenger transport.

SHAHAR JAMOAT TRANSPORTINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Kuziev Abdimurot Urokovich

quziyev@tersu.uz

Termiz davlat universiteti, texnika fanlari doktori, dotsent

Bobomurotov Bekzod Tursunpo'lat o'g'li

bekzodbobomurotov131@gmail.com

Termiz davlat universiteti

Magistrant

Suyunov Oltibek Do'stmurodovich

oltibekjon@gmail.com

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14028224>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2024

Accepted: 30th October 2024

Online: 31th October 2024

KEYWORDS

Jamaot transporti, yo'lovchi
tashish, yo'lovchi aylanmasi,
sifat ko'rsatgichlari.

ABSTRACT

Yo'lovchilarga ishonchli transport xizmati ko'rsatishda shahar jamoat transporti infratuzilmasini tubdan rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Maqolada shahar yo'lovchi tashish transportida tashish jarayonini tashkil etish darajasi, sifat ko'rsatkichlari, yo'nalishlar bo'yicha harakatni oqilona taqsimlash masalalari yoritilgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hamda yuk va yo'lovchilarni tashishda avtomobil va umum foydalanuvdagi transportning ahamiyati katta hisoblandi. Mamlakatimiz aholisining soni yildan-yilga ortib borishi bilan shaharlar hududi kengayib,



aholining bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazishda transportga bo'lgan ehtiyoji ham oshib bormoqda. Bu esa tabiiy ravishda yo'llarda, shahar ko'chalarida harakat xavfsizligini ta'minlashda hamda aholiga transport xizmatini ko'rsatishda muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-59-sonli qarorida jamoat transportining asosiy kamchilkari sifatida quydagilar ta'kidlab o'tilgan: qatnov muntazamligi, harakat xavfsizligi va sifat talablariga rioya etilmasligi, yo'lkira haqining tabaqalashgan tariflari mavjud emasligi, jamoat transporti harakati ustuvorligi ta'minlanmasligi. Bu kabi kamchilklar jamoat transporti jozibadorligini pasaytiradi.

Shahar avtobuslarida yo'lovchilar tashish texnologiyalarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha xorijiy davlatlar hamda mamlakatimizning ko'pgina ko'zga ko'ringan olimlari o'z ilmiy ishlarida aks etgan, jumladan. Valishev K.P., Chik V., Vasilev I. S., Dremina O.Yu., Dmitriev I.D., Kogan D.B., Kolinova A.V., Leonov P.V., Litman Todd, Macheret D.A., Neustreva E. A., Nikonova I.S., Poroshina N.V. , Safronov E.A., Yfimtseva L.O., Shatalova S.I., Beirao G., Eriksson L., Kingnam S., Qin N., Redman L., Rietveld P. mamlakatimiz olimlaridan B.A.Xodjaev, G.A.Samatov, S.A.Salimov, Sh.A.Butaev, K.B.Nasretidinov, L.A.Axmetov, K.M.Nazarov, A.A.Nazarov, B.I.Abdullaev va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.


Statistika ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil yanvar-mart oylarida barcha transport turlari tomonidan 317,5 mln.kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga ko'paygan. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 2,1 foizga ko'payib, 2 742,3 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2024-yil yanvar- mart	2023-yil yanvar- martga nisbatan, foiz hisobida
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi	381,3	118,1
shu jumladan avtomobil transportida	317,5	111,1
Yo'lovchi aylanmasi, mln.yo'lovchi-km	3207,2	118,1
shu jumladan avtomobil transportida	2743,3	102,1

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2023-yil yanvar-martga nisbatan 2,1 foizga oshib, 2 742,3 mln.yo'lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 11,1 foizni tashkil etdi (2023-yil yanvar-mart 1,1 foiz) (1-rasm).



Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilda O'zbekistonda avtomobil transportda tashilgan yo'lovchilar soni 2020-yilga nisbatan 18 % ga oshdi va 6292,7 mln.kishiga yetdi. Transportning boshqa turlarida yillik tashilgan yo'lovchilar soni xususan: temir yo'l 9.6 mln.kishi, Metro 172 mln.kishi va havo transpoti 5.3 mln.kishini tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Tashilgan yo'lovchi soni (mln.kishi)

Turlar/Yillar	2020	2021	2022	2023
Temir yo'l	6,2	7,9	9	9,6
Metro	38,8	101,8	136,7	172
Havo	0,9	3	4,1	5,3
Avtomobil	225	265,1	281,3	303,3

2023-yil holatiga ko'ra avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 134,504 mlrd. yo'lovchi-km tashkil qildi va 2020 yil holatidan 18.8% foizga oshdi. Boshqa transport turlarida xususan: Havo transporti 360% ga; metro 333% ga; temir yo'l 50%ga; tamvay transporti 150% ko'paydi (3-jadval).

3-jadval

Bajarilgan yo'lovchi aylanmasi

Turlar	Yillar				O'lchov birligi
	2020	2021	2022	2023	
Avtomobil	113,198	127,871	131,012	134,504	mlrd. yo'lovchi-km
Havo	3	5,3	10,9	13,8	mlrd. yo'lovchi-km
Metro	0,3	0,7	1	1,3	mlrd. yo'lovchi-km
Temir yo'l	1,8	3,1	3,5	3,9	mlrd. yo'lovchi-km
Tramvay	0,004	0,01	0,01	0,01	mlrd. yo'lovchi-km

Bugungi kunda shaharlarda jamoat transportining harakatlarni yo'nalishligi, qulayligi va jozibadorligini oshirishga e'tibor berish shart va zarur. Bu yondashuvlarning kerakli darajaga olib chiqilishi albata jamoat transportida harakatlanish ustivorligini ta'minlaydi va shu bilan birga tirbandlik, havo tarkibidagi ifloslanish darajasi oshib ketishi va shu kabi muamolarning oldini oladi[1, 4].



Shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarining ya'ni, ishlab chiqarish maskanlari, tovar va xizmat ko'rsatish sohalari, istemolchilarga mehnat manbalarini yetkazish, ta'lim bilan bog'liqliklar ta'minlanishi aholi harakatchanligining asosiy negizi hisoblanadi. Barcha tizimning mehnat faoliyati ishonchsiz tashish tizimi sababidan uzuladi. Harakatchanlikni yuqori pog'onalariga olib chiqish shaharning iqtisodiy ko'rsatgichlari, mehnat va savdo markazlarining moliyaviy jihatdan ko'tarilishiga yetarli darajada o'z hisasini qo'shadi. Jamoat transporti istemolchilarni ommaviy yetkazishning bunday tig'ishlashgan qurilish jarayonidagi yagona yechimi hisoblanadi. Ish, o'qish va boshqa maqsadlarda avtomobil (taksi va shaxsiy) transport vositasidan foydalanish jamoat transportidan foydalanishga qaraganda 5-10 baravar kataroq hudud va saqlash uchun yuzlab marta katta hududlarni egalaydi. Ish va xizmat ko'rsatish maskanlarining qamroviga qarashli avtomobil saqlash hududlarining ko'proq maydon egallashiga sabab bo'ladi.

Jamoat transportining asosiy maqsadi shahar ichi va shaharlararo aholining harakatchanligini moliyaviy va tabiiy ravishda kam xarajatli, tiklab bo'lmas resurslardan oqilona foydalanadigan, atrof muhitni kam ifloslantiradigan va bir vaqtda qulay va ishonchli bo'lgan tizim bilan ta'milash hisoblanadi[5,6].

Yillar mobaynida ortirib kelinayotgan kuzatishlarga asoslangan holda, shunga ishonamizki harakatchanlikni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ajratib bo'lmas o'rni bor. Shu boisdan harakatchanlik bir nechta avfzaliklarga ega.

- 1) Aholining uzoq masofali va rejalashtirilgan vaqtga bog'langan sayohatini shakilantiradi (kechikishlarsiz belgilangan vatqda)
- 2) Jamoatning turli darjadagi qatlamlarining iqtisodiy jixatdan kuchayishiga imkoniyatlar yaratadi (uydan ish joyiga va orqaga qaytish);
- 3) Hududlardagi infratuzilmali iqtisodiyotning teng ahamiyatli o'sishiga zamin yaratadi (tijorat markazlari va boshqa iqtisodiy komplekslarni ko'chirish);
- 4) Shahardagi tirbandlikni oldini olgan holda barcha hayot uchun kerakli xizmatlarni kechikishini oldini oladi (barcha boshqarish xizmatlar va hayotni qo'llab-quvvatlash mashinalarining qiyin bo'lmagan harakati: politsiya, tez yordam, o't o'chiruvchilar, ijtimoiy xizmatlar, shuningdek shahar bo'ylab turli maqsadlar uchun yuklarni muntazam ravishda ko'chirish va turizim nuqtai nazardan ham muhum ahamiyatga ega).

Harakati davomiyligining kutilgan vaqti yo'lovchi uchun juda muhim hisoblanadi. Vaqtning muhimlik darajasi yo'lovchi rejalashtirilgan uchrashuviga, ishiga, ta'limga, poezd, samalyot va boshqalarda vaqtida yetib borish bilan belgilanadi. Yo'lovchilar ko'p hollarda o'zi borayotgan manzillarigacha va manzilga qancha vaqtda yetib borishni oldindan rejalashtiradi yani, avtobus bekatigacha piyoda borish 6 minut, avtobus safari taxminan 20-25 minut, avtobusni kutish vaqti aytaylik 7 minutdan oshmaydi, avtobus bekatidan rejalashtirilgan manzilgacha yetib borish 3 daqiqa vaqt oladi. Umumiy hisobda yo'lovchi manzilga 35-40 minutda yetib borishini taxmin qiladi. Agar transport vositasining kutish vaqti 20 minutga va to'xtashi rejalashtirilmagan bekatlar soni oshib ketsa (misol: bizning shahrimizda bekatlarsiz harakat amalga oshiriladi) safar vaqti 1 soatdan oshadi va bizning misolimizda bu rejalashtirilgan vaqtning 66% ga oshishini bildiradi.

Quyidagi ko'rsatgichlarni hisobga olgan holda yo'lovchi tashish sifati baholanadi[7, 8]:



- xavfsizlik;
- doimiylik;
- ma'lumot bilan ta'minlanishi;
- shinamlik;
- aholi talab darajasida mavjudlik.

Aholiga ko'rsatiladigan transport xizmatlari sifati bu normativ huquqiy talablar asosida yo'lovchilarni tashish tizimi va tashish jarayonining umumlashtirilgan tushunchasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yo'lovchi tashish xizmatlari sifat ko'rsatgichlarini yaxshilash uchun quydagilarga erishish lozim:

- yo'lovchilarni manziliga yetkazishda minimal darjada harakatlanishiga vaqt sarflash;
- jamoat transportining muntazzamligi;
- transportning mavjud infrastrukturasining foydalanuvchilar uchun qulayligi;
- turli xil transport xizmatlarining yo'lovchilar uchun taklif qilinishi;
- yo'lovchilarni harakat, kutish vaqtlarida, transport vositasiga chiqish va tushishida shu bilan birgalikda ayni yo'nalishdan boshqa yo'nalishga almashishlarida qulaylik ta'minlanishi;
- transport xizmatlari to'g'risidagi axborotning keskin ta'minlanishi;
- transport xizmatlariga bo'lgan qulay to'lash yo'llari;
- shahar yo'lovchi transportining xavfsizligi va boshqalar.

Bu natijalarga erishish uchun quydagilar taklif etiladi.

1. Yo'lovchilarni tashish sifatini yaxshilash uchun jamoat transporti yo'nalishlarining to'xtash bekatlarini ratsional joylashtirish va takomillashtirish lozim. Buning natijasida quydagilarga erishiladi:

- vaqti tejaladi;
- belgilangan bekatlarga to'xtashi ta'minlanadi;
- ekspluatatsion tezligi oshadi;
- avtobuslarning ta'mirgacha bo'lgan o'tish masofasi yaxshilanadi;

transport xizmatlari sifat ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

2. Mamlakatimiz yirik shaharlarida hizmat ko'rsatayotgan jamoat transporti va bekatlarini zamonaviy intellektual tizimlar bilan bosqichma-bosqich jihozlash lozim. Buning natijasida quydagilarga erishiladi:

- ✓ transport ishining samaradorligi oshadi;
- ✓ harakat havfsizligi oshadi
- ✓ yo'lovchi va transport korxonalariga qulayliklar olib keladi;
- ✓ avtobus haydovchilarining faoliyati nazorat ostida bo'ladi
- ✓ shahar infratuzilmasi rivojlanadi,
- ✓ yo'lovchilar vaqtni to'g'ri taqsimlashga erishiladi.

3. Jamoat transportidan foydalanishda aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish lozim.

References:

1. И.В. Спирин, (2006) Перевозки пассажиров городским транспортом: Справочное пособие для специалистов / И.В. Спирин. – М.: ИКЦ «Академкнига», 413 с



2. Мещерякова О.М., Бабжанова А.О. Организация городских пассажирских перевозок на основе принципов логистики. Экономические и юридические науки. Экономика и управление, №6, 57-66 с.
3. Kuziyev A. U., Suyunov O. D., Xurramov K. B. Improving the quality of passenger service in city public transport //International bulletin of engineering and technology. – Т. 2. – №. 12. – С. 157-161.
4. Urokovich K. A. et al. TERMIZ SHAHAR 3-SONLI AVTOBUS YO 'NALISHINING XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 4. – №. 4-1. – С. 7-12.
5. Muratov A., Suyunov O., Tilovov S. IMPROVING THE OPERATION OF PUBLIC TRANSPORT IN THE CITY OF TERMEZ //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 5 Part 3. – С. 168-175.
6. Uroqovich K. A., Do'Stmurodovich S. O., O'G'Li F. T. K. TERMIZ SHAHAR JAMOAT TRANSPORTIDA AVTOBUSLAR ISH UNUMDORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI EKSPLOATATSION KO'RSATKICHLAR TAHLILI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 4. – №. 5-2. – С. 177-183.
7. Amonovich, U. I., Kuziyev, A. U., & Shamsutdin o'g'li, M. A. (2023). YO 'LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(2), 109-113.
8. Mirzayev, A., Kholboyev, S., & Kuziev, A. (2022). IMPROVEMENT OF QUALITY INDICATORS OF PUBLIC TRANSPORT SERVICES. *INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY*.–2022.
9. Kuziev A. et al. Application of multimodal transportation in the development of future flows of the region //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2612. – №. 1.
10. Kholikberdievich M. A. Efficient organization of the process of servicing automobile flows arriving at the point of shipment //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 21. – С. 236-240.
11. Жалолов З. М. У., Хуррамов А. Ч. ОСОБАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ДОРОЖНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 64-73.
12. Хуррамов А. Ч. и др. ПРИМЕНЕНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ СЕЙСМОСТОЙКОСТИ МОСТОВЫХ КОНСТРУКЦИЙ //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 1055-1062.